

"SIFATLI TA'LIM KELAJAK POYDEVORI"

*Toshkent viloyati Ohangaron shahar kasb-hunar maktabi Katta ustasi
Muzaparova Shoxsanam Muxitdinovna*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar va uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, sifatli ta'lif, uning kelajak poydevori ekani haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Ta'lif, kelajak, ilm-fan, ilm-ma'rifat, ta'lif-tarbiya, kasb-hunar maktabi, texnikum, litsey.*

Bugungi shiddatkor zamonda sifatli ta'lim kelajak poydevori bo'lib xizmat qiladi. Asrlar osha dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan ilm-fanimiz kelajagiga bugun biz loqayd qarashimiz buyuk xatoyimiz hisoblanadi. Chunki bizga ota-bobolarimizdan me'ros bo'lib qolgan ilm-ma'rifikatni, ta'lim rivojini shunchaki tashlab qo'ya olmaymiz va bunga haqqimiz ham yo'q.

Nega sifatli ta'lrim kelajak poydevori deymiz? Bu ta'lrim beruvchi maskanlarining muhim vazifasi hisoblanib,bunda o'qituvchilarning roli beqiyos,chunki o'sib kelayotgan avlodga ta'lrim-tarbiyani maktabdagi, kasb-hunar maktabi, shuningdek oliygoh o'qituvchilari beradi. Bugungi kunda har bir o'qituvchi o'z ustida muntazam ravishda ishlamasra, salohiyatlari kadrlarni tayyorlash qiyin bo'ladi.Bilamizki, jamiyat hayotining katta qismini yoshlar tashkil etadi,bu yoshlarga ko'proq e'tiborni qaratish lozimligini anglatadi. O'qituvchi nafaqat o'z kasbining ustasi,balki jamiyat hayotining barcha sohalaridan xabardor,keng doirada fikr-mulohaza yuritadigan mukammal shaxs bo'lishi,bugungi kunning qahramoni sifatida o'zini shakllantirishi shartdir.

Mamlakat ravnaqi va taraqqiyotini ta’lim istiqboli, yosh avlodning ma’naviy kamoloti belgilaydi. Kelajak egalarining zamonaviy bilim, intellektual salohiyat, ilmu ma’rifat, erkin fikr, ilg’or texnologiyalarni tatbiq etish, jahonda e’tirof etilgan uslub va an’analarni qo’llash malakasiga ega bo’lishi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimidagi islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan bo’lib, xalqaro mezon asosida dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida qo’llanayotgan va katta samara berayotgan ta’lim texnologiyalari, baholashning xalqaro talablariga muvofiq bo’lishiga qaratilmoxda. Dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida ta’lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Taraqqiyot odimlari bilan jahonga yuz tutayotgan mamlakatimizda ham ta’lim sohasida baholashning xalqaro mezonlari qo’llanilmoqda. 2017–2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida milliy ta’lim tizimi sifatini oshirish hisobiga yuqori malakali, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni takomillashtirish markaziy o’rinlardan birini egallaydi. O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoev ta’kidlaganidek, «Biz ta’lim va tarbiya tizimining

barcha bo'g'irlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz». Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta'lumi tizimida ta'lum sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida”gi 997-sonli qarori qabul qilindi.

Har bir xalqning, millatning ertangi kuni o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq bo'lganidek, hur O'zbekistonimizning yorqin kelajagi ham bugun o'qituvchi-ustozlardan ta'lum-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarda yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lum-tarbiya olishiga bog'liq”.

Yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Hozir maktablarimizda ta'lum-tarbiya olayotgan yosh avlod kelgusida ajdodlarining hayrli ishlarini davom ettiradigan, o'zidan keyingi avlodlarga ozod va obod Vatanni meros qilib qoldiradigan hamda O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchi kishilardir.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida kelgusi yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni olti yo'nalish misolida aniq ko'rsatib o'tdi. Ayniqsa, ta'lum sohasini yanada isloq qilish, ta'lum sifati va samaradorligini ta'minlash bo'yicha bildirilgan konstruktiv fikrlar e'tirofga molik. Zero, rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaerda ta'limga, ilm-fanga yaxshi sharoit yaratilgan bo'lsa, o'sha erda har tomonlama etuk va vatanparvar kadrlar etishib chiqqan. Shu maqsadda ta'luming barcha yo'nalishlarida qator o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda va bu o'zgarishlar ta'lum sohasida so'nggi 5-6 yil davomida amalga oshirib kelinayotgan tizimli o'zgarishlarning navbatdagi ilmiy asoslangan va natijasi kafolatlanayotgan bosqichidir.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida esa, xalqning islohotlarga bo'lgan ishonchi ortishi uchun zarur asoslar shakllandi. Bu esa, o'z navbatida, yangi reja va dasturlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lum yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi bu borada ham milliy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu yo'nalishdagi serqirra faoliyat esa “Inson – jamiyat-davlat” g'oyasi asosida tashkil etilmoqda.

Shu o'rinda bir narsaga e'tiboringizni qaratmoqchi edim. Biz qachonki ta'lum to'g'risida gapirsak, albatta, tarbiyani ham qo'shib aytamiz. Sababi ta'lum va tarbiya yagona, uzviy jarayon hisoblanadi. Ta'lum bor joyda, albatta, tarbiya ham bo'ladi. Lekin bu masalada boshqacha qarashlar ham bor, ya'ni tarbiya oilada beriladi, ta'lum muassasalarida esa faqat ta'lum berish kerak, degan. Fikrimizcha, texnikum, universitet o'qituvchisi ham tarbiyachidir. Nafaqat ta'lum dargohida, balki mahallada ham, oilada ham. Chunki azal-

azaldan qishloqda ham, mahallada ham o'qituvchiga munosabat, e'tibor boshqacha bo'lgan. Ziyoli inson sifatida uning fikrlariga qulog solishgan.

Davlatimiz rahbari "O'qituvchi va murabbiylar kuni"da so'zlagan nutqlarida shunday ta'kidladilar: "Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz mакtabgacha ta'lism va mакtab ta'limi, olyi va o'rta maxsus ta'lism tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, mакtab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Ishonamizki, hurmatli ota-onalar bu tashabbusni, albatta, qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'ladilar".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, —O'zbekiston||, 2016 yil, 56 bet.
2. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.
- 3 .2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009